O‘QUVCHILARNING DIZAYNERLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM VOSITALARINING O‘RNI

Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim va kasbiy ta’lim tizimida o‘quvchilarning badiiy-estetik didi va dizaynerlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli ta’lim vositalarining tutgan o‘rni hamda ilmiy-metodik imkoniyatlari yoritilgan. Muallif raqamli vositalar (audio-vizual vositalar, elektron darsliklar, animatsion dasturlar va kompyuterlashtirilgan nazorat tizimlari) vositasida o‘quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini oshirish, texnik modellash va dizayn loyihalarini amalga oshirish mexanizmlarini asoslab bergan. Shuningdek, texnologiya darslarida raqamli didaktik vositalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning texnologik, kreativ va dizaynerlik kompetensiyalarini shakllantirishning amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim vositalari, dizaynerlik ko‘nikmalari, badiiy-estetik did, texnik modellash, texnologiya fani, audio-vizual vositalar, tayanch kompetensiyalar, elektron didaktik ta’minot, kreativlik.

Аннотация: В данной статье освещаются роль и научно-методические возможности цифровых образовательных средств в развитии художественно-эстетического вкуса и дизайнерских навыков учащихся в системе общеобразовательного и профессионального образования. Автор обосновал механизмы повышения эффективности самостоятельной работы учащихся, реализации проектов технического моделирования и дизайна с помощью цифровых средств (аудио-визуальные средства, электронные учебники, анимационные программы и компьютеризированные системы контроля). Также показана практическая значимость формирования технологических, креативных и дизайнерских компетенций учащихся посредством применения цифровых дидактических средств на уроках технологии.

Ключевые слова: Цифровые образовательные средства, дизайнерские навыки, художественно-эстетический вкус, техническое моделирование, технология, аудиовизуальные средства, базовые компетенции, электронное дидактическое обеспечение,

креативность.

Abstract: This article highlights the role and scientific-methodological possibilities of digital educational tools in developing students' artistic and aesthetic taste and design skills within the general education and vocational education system. The author substantiates the mechanisms for implementing technical modeling and design projects, increasing the efficiency of students' independent work through digital tools (audio-visual tools, electronic textbooks, animation programs, and computerized control systems). The practical significance of forming students' technological, creative, and design competencies through the use of digital didactic tools in technology lessons is also demonstrated.

Keywords: Digital educational tools, design skills, artistic and aesthetic taste, technical modeling, technology science, audio-visual tools, core competencies, electronic didactic support, creativity.

Respublikamizning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, ya’ni fan-texnika va texnologiyalarning jadal taraqqiyoti va boshqa shu kabi ko‘plab omillar ta’lim tizimini zamon talablari asosida modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida shaxsning ijodkorlik va kasbiy-kreativlik sifatlarini rivojlantirishga qo‘yiladigan talablarning ortib borishi ta’lim sifatini oshirishda innovatsion faoliyatni keng ko‘lamda tashkil etishga e’tiborni kuchaytirilayotgan paytda bu tabiiy hol, albatta. Bu borada fanlarning elektron didaktik ta’minotini ishlab chiqish, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’limdagi raqamli vositalar – bu o‘qitishda axborot uzatish sifati, tezligi va jozibadorligini oshirish uchun ishlab chiqilayotgan raqamli texnologiyalarning kichik guruhi: elektron ta’lim tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, video xizmatlar, grafikalar bilan ishlash va boshqalar.

Raqamli ta’lim vositalari qo‘yilgan metodik maqsadlarni amalga oshirishi uchun o‘qitishning turli shakllaridan va ularning majmuasidan foydalanish, ya’ni zaruriy ta’lim muhitini barpo etish imkonini beradi. O‘quvchilarning estetik didini rivojlantirishda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishda o‘qituvchi kompyuterlashtirilgan o‘qitish va nazorat qilish dasturlariga sharoitdan kelib chiqib o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqamli ta’lim vositalari asosida o‘qitish: darslarda animatsion, audio-vizual vositalarni hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini oshiradi va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi,

axborotlarning noan'anaviy manbalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib beradi, fanga oid kompetensiyalarini rivojlantiradi. Raqamli ta'lim vositalarini eng so'nggi pedagogik qonuniyatlar asosida ishlab chiqib, yosh avlodda o'ziga ishonch, fanga qiziqish, mehnatsevarlik, o'zgalar mehnatini qadrlash, zamonaviy bilim olish, hunar egallashga bo'lgan qiziqish, mustaqil va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Bu esa mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularning komponentlarini takomillashtirish, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan yosh avlodni ijodiy va intellektual salohiyatli qilib yetishtirishda katta ahamiyatlidir.

O'quvchilarning dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirishda dizaynerlikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli ta'lim vositalarini yaratish o'quv faoliyatining quyidagi turlarida qo'llash mumkin: yangi nazariy materiallarni o'rganish va bayon etishda; nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda; o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlash, nazorat qilish va tekshirishda; o'quvchilarning mustaqil ishlarida; ochiq darslar, telekonferensiyalar, audiokonferensiyalar, namunaviy mashg'ulotlarni o'tkazishda; amaliy mashg'ulotlar jarayonida.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish masalasi faqat intellektual bilimlar bilan chegaralanmay, balki o'quvchilarning estetik madaniyati, ijodiy tafakkuri va muhitni go'zallik mezonlari asosida idrok etish qobiliyatini shakllantirishni ham taqozo etadi. Ayniqsa, o'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ijodiy faolligi va madaniy saviyasini oshirishda muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Badiiy-estetik did – bu shaxsning san'at asarlari, atrof-muhit, me'moriy va dizayn obyektlarini idrok etish, baholash hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi.

Dizaynerlik ko'nikmalari esa o'quvchining estetik tasavvurlari asosida makon, buyum yoki vizual muhitni ongli ravishda loyihalash, bezash va takomillashtirishga qaratilgan amaliy faoliyat hisoblanadi. Mazkur ko'nikmalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, badiiy-estetik did dizaynerlik faoliyatining nazariy-estetik asosini, dizaynerlik ko'nikmalari esa estetik didning amaliy ifodasini tashkil etadi.

O'quvchilarning badiiy-estetik didi va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida ayniqsa dizaynerlikka oid tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda texnologiya fanini o'qitish jarayonida raqamli ta'lim vositalarini qo'llash katta imkoniyatlar yaratadi. Sababi raqamli

ta’lim vositalari rang-barangligi, ko‘rgazmaligi va ko‘rsatmaligi, animatsiyalarga, audio-vizual vositalarga boyligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga tortadi hamda ijodiy yaratuvchanlik qobiliyatlarini, loyihalash, texnologik, kreativlik va dizaynerlik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, modellashtirish operatsiyasini amalga oshirishda ta’lim jarayonida raqamli vositalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Modellashtirish – bu turli shakl va bichimdagi kiyim modelining konstruksiyasini ishlab chiqaradigan murakkab ijodiy jarayondir. Shuning uchun biror buyumni modellashtirishdan oldin turli shakl va bichimdagi modalar konstruksiyasini tuzilmoqchi bo‘lgan asosiy konstruksiya bazasi ustida ishlash yoki shu asos bazasidan olish mumkin. Bu jarayon texnik modellash deb ataladi. Texnik modellash namunaviy konstruksiya asosini yangi model konstruksiyasi darajasigacha yetkazishdan iborat.

Ushbu yo‘nalishda ta’lim tizimida raqamli ta’lim vositalarini qo‘llashning maqsadi talabalarda dizaynerlik va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish bilan bevosita bog‘liq holda ishlab chiqiladi. O‘z navbatida o‘quvchilarning badiiy-estetik didi va dizaynerlik ko‘nikmalarini rivojlantirish keyingi hayoti davomida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib borishiga qaratilgan sifatlarni tarkib toptirishga alohida xizmat qiladi.

Bunda ta’lim tizimida raqamli ta’lim vositalar asosida elektron muhitni tashkil etish dars jarayonlarida axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish pedagogik ta’limning axborot-ta’lim resurslarini yaratish ta’lim sifatini oshiruvchi omil sifatida ahamiyatlidir.

Bizning fikrimizcha, o‘quvchilarda badiiy-estetik didni rivojlantirish shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ijodiy faolligi va madaniy saviyasini oshirishda (o‘z-o‘zini rivojlantirish, yangiliklarga intilish va h.k) yoki bir so‘z bilan aytganda dizaynerlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishida raqamli ta’lim vositalarining o‘rni katta.

Xulosa qilib aytganda, professional ta’lim tizimida bo‘lajak pedagog kadrlarni mehnat bozorida raqabatbardosh mutaxassislar qilib tarbiyalash, ularning dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodikalar, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar, zamon talablari darajasidagi o‘quv dasturlari va rejalarining ta’minlanishi hamda ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi kabi vazifalar ustuvor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlant-

irish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. – URL: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori. – URL: https://lex.uz

3. Qurbonov N.Ya. Ijodkorlik kompetentligini maktab o‘qituvchisida texnologik yondashuv asosida takomillashtirish // “Fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Jizzax, 2019. – B. 127-129.

4. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 288 b.

5. Ibraimov X.И. Креативность как одна из характеристик личности будущего педагога // Наука, образование и культура. – 2018. – № 3 (27). – С. 44-46.

6. Ibragimovich I.K., Kholboyevna I.F., Amrilloyevich I.A., Rakhmonovich U.S. Pedagogical abilities of a teacher, structure and development // 2021. – Vol. 48, № 12.

7. Ibraimov X.I. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul texnologiyalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari // Integration of Science, Education and Practice. Scientific-Methodical Journal. – 2021. – S. 209-214.

8. Ibraimov X.K. Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system // International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education. – 2020. – Vol. 1. – P. 6-15.